



Ishboboyeva Gulbarchin Rustam qizi,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti
 e-mail: ishboboyevagulbarchin@gmail.com

OILA VA KARYERA O'RTASIDAGI MUVOZANATNI SAQLASHDA PSIXOLOGIK OMILLAR

<https://doi.org/10.65185/mojgo.vi.262>

Annotatsiya. Bikaryer oilalardagi gender rollarning taqsimlanishida er va xotin munosabatlarida o'zlarining turli rollarini bajarishga harakat qilayotgani sababli, ba'zan o'zaro munosabatlarda konfliktlar va stress holatlar yuzaga kelishi mumkin. Oilada turli mas'uliyatlar va faoliyatlarni bir vaqtning o'zida bajarish muammolari hamda haddan tashqari vazifalarning yuklanishi, ish va oilaviy mas'uliyatni vaqtida bajarishda ko'plab qarorlar qabul qilinadi. Bu esa ushbu qarorlarning ba'zilar oilaning umumiy farovonligiga ta'sir qiladi. Ko'plab oilalar o'zlarining iqtisodiy va emotsional resurslarini turli faoliyatlarni bajarish jaroyonida birlashtirish bilan bog'liq.

Tayanch so'zlar: oila, karyera, oilaviy munosabatlar, konvergensiya nuqtalari, kasb tanlash, kasbiy martaba, bikaryer oilalar, psixologik farovonlik.

Аннотация. В бикарьерных семьях, при распределении гендерных ролей, муж и жена стремятся выполнять различные функции, что иногда может приводить к конфликтам и стрессовым ситуациям в их взаимоотношениях. Проблемы одновременного выполнения различных обязанностей и видов деятельности в семье, а также чрезмерная нагрузка приводят к необходимости принятия множества решений для своевременного выполнения рабочих и семейных обязанностей. Некоторые из этих решений влияют на общее благополучие семьи. Многие семьи сталкиваются с необходимостью объединения своих экономических и эмоциональных ресурсов в процессе выполнения различных видов деятельности.

Ключевые слова: семья, карьера, семейные отношения, точки конвергенции, выбор профессии, профессиональная карьера, семьи с двумя карьерами, психологическое благополучие.

Annotation. In dual-career families, the distribution of gender roles often leads to husbands and wives striving to perform various functions, which can sometimes result in conflicts and stressful situations in their relationships. The challenges of simultaneously managing various duties and activities within the family, as well as excessive workload, necessitate making numerous decisions to fulfill both work and family obligations in a timely manner. Some of these decisions affect the overall well-being of the family. Many families face the need to combine their economic and emotional resources in the process of performing various types of activities.

Keywords: family, career, family relationships, convergence points, career choice, professional career, dual-career families, psychological well-being.

Kirish. Oila va karyera mazmuni hamda maqsadlarini belgilashda o'xshashlik va farqlar mavjud. To'g'ri, karyerada ko'proq muvaffaqiyatga, oilada esa baxtga ko'proq e'tibor qaratiladi. Bundan tashqari, oilaviy munosabatlarning asosiy ajralib turadigan xususiyati, an'anaviy professional munosabatlardan farqli o'laroq, bu munosabatlar ishtirokchilarining intim-shaxsiy yo'nalishi bo'lib, u ko'pincha oilaviy munosabatlarni hech bo'lmaganda oilaviy munosabatlar rivojlanishining ba'zi daqiqalari (yoki ba'zi bosqichlari)ni o'z ichiga oladi¹. Ammo shuni ham e'tirof etish kerakki, ba'zi hollarda mehnat, afsuski, oila har doim ham chinakam baxtli bo'lmagani kabi ishda shaxsning o'zini o'zi anglash baxtiga bog'liq bo'lishi mumkin, keyin esa muvaffaqiyat (yoki muvaffaqiyatga taqlid qilishga) ga qaratilgan bo'ladi. Shunga qaramay, ularning eng ijobiy ko'rinishlarida oila ham, karyera ham muvaffaqiyat va baxtni anglatadi.

Oilalar ham, karyera ham insoniy munosabatlarning tartibli versiyalaridir. Har bir inson o'ziga xos "qo'llab-quvvatlash nuqtalari"ni qidiradi, ularni shartli ravishda quyidagilarga bo'lish mumkin:

1. "Konvergensiya nuqtalari" (bir-birini qo'llab-quvvatlamochi bo'lgan hamfikrlar uchun).

2. "Repulsiya nuqtalari" (hayotni qandaydir tarzda o'zgartirishga urinayotganda, masalan, otalardan qaramog'idan qochish yoki ajrashish paytida yaqinroq odamni topish uchun nuqtalari).

3. "Muvozanat nuqtalari" (barqarorlik muhim bo'lganda, ko'pincha oiladan tashqarida yoki aksincha, ishdan tashqarida muhimroq muammolarni hal qilish uchun nuqtalar). Ajablanarlisi shundaki, shaxs oilada ham, ishdan ham bunday "qo'llab-quvvatlash nuqtalari"ni topishi mumkin. "Qo'llab-quvvatlash nuqtasi" g'oyasi shaxsning dunyoqarashini tartibga solishga, turli xil hayot va martaba qiyinchiliklaridan omon qolishni osonlashtiruvchi maxsus ma'nolarni topishga imkon beradi. Ammo shuni qiziqki, bunday "qo'llab-quvvatlash nuqtalari" boshqa shaxslarga, hatto o'zaro dushmanlik holatlarida ham bu odam bilan yanada tushunarli, aniq munosabatlarni o'rnatishga yordam beradi².

¹ Брандт Г.А. Природа женщины как проблема / Г.А.Брандт // Общественные науки и современность. – 1998. – № 2. – С. 167-180.

² Гендерные стереотипы в меняющемся обществе. Опыт комплексного социального исследования / под ред. Н.М.Римашевской. – Москва, 2009. – 272 с.

So'nggi o'n yilliklarda shaxsning karyeraviy o'sishi va karyera muvaffaqiyati masalasi mahalliy hamda xorijiy psixologiya fanlarida keng o'rganilayotgan dolzarb muammolardan biriga aylandi. Ayollarning martaba fenomenini tizimli va integral psixologik tadqiq etish zarurati, bir tomondan, ayollarning kasbiy faoliyatda tez sur'atlar bilan kengayishi, ya'ni deyarli barcha ijtimoiy sohalarda ayollarning misli ko'rilmagan yutuqlarga erishishi bilan bog'liqdir. Ushbu jarayon, shuningdek, an'anaviy ravishda uy-ro'zg'or ishlari va bolalar tarbiyasi bilan band bo'lgan etnik guruhlariga ham ta'sir ko'rsatgan. Taxmin qilish mumkinki, kuchaygan "ayol karyerizmi" ko'plab mintaqalar va etnik guruhlarining demografik holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xotin-qizlar kasbi va martaba masalasi, asosan, mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ijtimoiy psixologiya muhim yo'nalishlaridan biri sifatida o'rganilgan. Bu soha umumiy psixologiya, rivojlanish psixologiyasi, shaxs psixologiyasi, differensial psixologiya, akmeologiya, sotsiologiya, iqtisodiyot, etnologiya va boshqa fundamental fanlar asosida shakllangan³.

Bugungi kunda gumanitar-ijtimoiy fanlarda shaxsiy va gender muammolarining ortib borayotgan ahamiyati munosabati bilan, psixologik bilimlar tizimida ayollarning martaba psixologiyasini mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida tadqiq etish uchun nazariy va metodologik asoslar yaratilmoqda. Tadqiqotchilar ayollarning martaba psixologiyasini ilmiy va tadqiqot muammosi, o'quv intizomi va ijtimoiy amaliyot sohasi sifatida ajratib ko'rsatishga intilmoqda.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar.

"Karyera psixologiyasi" tushunchasi, A.V.Karpov ta'rifiga ko'ra, shaxsning kasbga yo'naltirilishi va tayyorlanishidan boshlab, kasbiy biografiyaning yakuniy bosqichlari – murabbiylik faoliyatigacha bo'lgan psixologik qonuniyatlarni o'rganishni o'z ichiga oladi. Kasb tanlash – inson hayotidagi eng muhim va taqdiriy qarorlardan biri bo'lib, uning shaxsiy hayoti, kasbiy faoliyati, jamiyatdagi mavqeyi, shuningdek, hayotdan va kasbidan qoniqish darajasi ko'p jihatdan ushbu qarorga bog'liqdir. Jahonda yuz berayotgan jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar har bir insonning shaxsiy taqdiri va hayot faoliyatida o'z

³ Эйдемиллер Э.Г. Семейная психотерапия. – Москва, 1987. – 213 с.

aksini topmoqda. Bu holat psixologlar, akmeologlar, o'qituvchilar, sotsiologlar va siyosatshunoslar orasida kasbni o'rganishga bo'lgan qiziqishni kuchaytirib, fanlararo xarakterga ega bo'lgan murakkab muammolarni ilgari surmoqda⁴.

Ushbu hodisaga qiziqish keskin ortib borayotgani sababli, mahalliy va xorijiy adabiyotlarni tahliliy ko'rib chiqish "karyera" tushunchasini, uning jinsi, shaxsiy va etnik tarkibiy qismlarini yanada chuqur, mazmunli va tizimli anglash zaruratini ta'kidlaydi. "Karyera" tushunchasi ko'pincha insonning kasbiy hayoti va mehnat faoliyatining sifatini, shuningdek, uning tashkiliy iyerarxiya bosqichlariga ko'tarilishini baholashda qo'llanadi va fanlararo ilmiy tadqiqotlarda keng qo'llanish imkoniyatini beradi⁵. Mavjud tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayollarning martabaga bo'lgan munosabati jamiyatning ijtimoiy-tarixiy sharoiti va ijtimoiy tuzilishi, shuningdek, ayolning martaba subyekti joylashgan etnik-ijtimoiy-madaniy makonga bog'liqdir.

Xorijiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, oiladagi shaxslar kasbining turli jihatlariga keng va tizimli o'rganilgan. Bugungi kungacha quyidagi sohalarida muhim tadqiqotlar amalga oshirilgan: oiladagi shaxslarning mehnatdan qoniqish darajasi (Veroff, Douvan, Kulka, Lemkau, Pottick); bikaryer oilalarning martaba rivojlanishi modellari (Astin, Farmer, Betz, Fitzgerald); bikaryer oilalardagi liderlik uslublari (Rozener, Inston, Ragins, Sundstrom va boshqalar); gender diskriminatsiyasi muammosi (Shinar, Albrecht, Pose, Stone, Gutek, Morasch, Coher); bikaryer oilalarning martaba rivojlanishida sotsializatsiya jarayonining ta'siri (Watley, Kaplan, Folk, Salter); bikaryer oilalarning muvaffaqiyatli martabalariga to'sqinlik qiluvchi omillar (Homer, McLure, Piel, Epstein); shuningdek, an'anaviy "ayol" va "erkak" sohalarida martaba oshirayotgan bikaryer oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (Bingham, Walsh, Munly, Gudale, Hall, Ritchie, Boem, Stroud, Jenkins) keng tahlil qilingan⁶.

⁴ Гурко Т.А. Феномен современного отцовства // Мужчина и женщина: меняющиеся роли и образы. Материалы международной научной конференции. Т. 1. – Москва, 1999. – С. 26-53.

⁵ Воронина О.А. Феминизм и гендерное равенство / О.А.Воронина. – Москва: УРСС, 2004. – 320 с.

⁶ Захарова О.Д., Рыбаковский Л.Л. Геополитические аспекты депопуляции в России. // Социологические исследования. – 1997, – № 6. – С. 46-54.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Xorijiy tadqiqotlarda, jumladan, Shvarts, Rozin, Korabik, Sekaran va boshqalarning ishlarida bikaryer oilalarning martaba oshirish jarayonidagi hissiy keskinliklar va stress holatlari chuqur o'rganilgan. Kasbiy martaba masalasi keng ko'lamda kasbiy xulq-atvor aspektlari, ya'ni kasbiy tanlov, kasbiy rollar, kasbiy ijod va yutuqlar, shuningdek, kasbdan qoniqish kabi omillar bilan bog'liq holda tahlil qilinadi (L.V.Busenits, J.B.Barney, M.Domsh, A.Ladwig, R.A.Katzell). Bir qator tadqiqotchilar martaba rivojlanishining dinamikasi va bosqichlarini o'rganishga e'tibor qaratadilar (D.E.Super, A.Shreyogg, C.G.Vrenn). Karyera tushunchasi, shuningdek, tipologik (R.A.Katzell, C.G.Wrenn) va xulq-atvor yondashuvlari (J.D.Krumboltz) nuqtayi nazaridan ham tahlil qilinadi. Xorijiy psixologlar martaba – shaxsiy munosabatlar masalasiga alohida e'tibor qaratadilar (L.Larvud, B.Gutek, F.Meuers). Shuningdek, turli ijtimoiy guruhlarining martaba haqidagi g'oyalari ham o'rganadilar (D.C.Makklend, R.A.Noe, A.V.Noe, J.A.Bachuber)⁷.

Tadqiqotning nazariy asosini shaxsning ijtimoiy xulq-atvorining dispozitsiyaviy nazariyasi (V.A.Yadov); monogam oilaning uchta tarixiy turi tushunchalari (S.I.Golod), ota-onaning pozitsiyasi va oilaviy ta'lim turlari (O.A.Karabanova), oilaning tuzilishi va oilaning psixologik-pedagogik madaniyati (T.V.Lodkina), oilaning ijtimoiy o'zgarishi (B.Pfau-Effinger, A.A.Temkina va A.Rotkirch), hayotiy istiqbollari (K.A.Abulxanova-Slavskaya), kattalar uzluksiz kasbiy ta'lim subyekti (V.V.Gorshkova); R.Bernsning "Men-konsepsiyasi" nazariyasi; E.Schein tomonidan ishlab chiqilgan "karyera yo'nalishlari tipologiyasi", oilada ota-onalarning tarbiyalash va psixologik-pedagogik yordamga yondashuvi (L.M.Mitina va I.G.Shamsutdinova) tashkil etdi⁸.

⁷ Жедунова Л., Посысов Н., Можаровская И., Юрасова Е. Основы психологии семьи и семейного консультирования: учебное пособие. – Москва: ВЛАДОС-ПРЕСС, 2022.

⁸ Захарова О.Д., Рыбаковский Л.Л. Геополитические аспекты депопуляции в России // Социологические исследования. – 1997, – № 6. – С. 46-54.

Oilada er-xotin mutanosibligining energopsixologik diagnostikasi metodikasining viloyat kesimi bo'yicha tafovutlari (N-642)

Shkalalar	O'rtacha rang			Kruskal-Uollis H mezon	p (ishonchlilik darajasi)
	Toshkent viloyati (N-234)	Qashqadaryo viloyati (N-232)	Andijon viloyati (N-176)		
Psixikaning kundalik turmushda algoritm-lashganlikda namoyon bo'lishi	319,08	338,33	300,58	4,365	0,113
Er-xotinlik va ota-onalik vazifalariga, turmush o'rtog'i va farzandlariga munosabatlar	308,62	331,72	323,34	1,920	0,383
Bo'sh vaqtni o'tkazishni afzal ko'rishning mazmuni va shakllari	302,69	335,00	326,93	3,915	0,141
Xarakter sifatleri	336,24	321,85	299,50	4,085	0,130
Intellectual o'zaro ta'siri	329,60	322,67	307,28	1,533	0,465

Oilada er-xotin mutanosibligining energopsixologik diagnostikasi metodikasining viloyat kesimi bo'yicha farqlari o'rganilganda, mavjud psixikaning kundalik turmushda algoritm-lashganlikda namoyon bo'lishi ($H=4,365$; $p>0,05$), er-xotinlik va ota-onalik vazifalariga, turmush o'rtog'i va farzandlariga munosabat ($H=1,920$; $p>0,05$), bo'sh vaqtni o'tkazishning afzal ko'rish mazmuni va shakllari ($H=3,915$; $p>0,05$), xarakter sifatleri ($H=4,085$; $p>0,05$) hamda intellectual o'zaro ta'siri ($H=1,533$; $p>0,05$) shkalalarida ishonchli natijalar qayd etilmadi. Olingan natijalar tahlili bizga mazkur uchta tanlab olingan hududda madaniy an'analar tubdan farq qilmasa ham, bikaryer oilalardagi er-xotin munosabatlarida energopsixologik mutanosiblik o'zaro xarakter sifatleri, intellectual ta'sir, bo'sh vaqtini maromli va birga o'tkazishga intilishda o'xshash ko'rinish olishidan dalolat beradi.

Oilaviy tadqiqotlarga yondashuvlardan biri bu oila muhitini idrok etish va baholashni, ya'ni oila a'zolarining oiladagi vaziyatni qanday baholashi, norma va qoidalarni qanday o'rnatishi va ularga rioya qilinishi, his-tuyg'ularini ifodalashda qanchalik erkin bo'lishlari, o'z-o'zini rivojlantirish yoki oila rivojlanishiga intilishlari va qiyinchiliklarni yengishlarini o'rganishdan iborat. So'nggi paytlarda bu borada olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, bir tomondan, oila a'zolarining oila tizimiga erishish va uni nazorat qilishga ko'proq e'tibor qaratishi, nizolardan qo'rqqanligi, ikkinchi tomondan esa ular oiladagi o'zaro munosabatlarning axloqiy va intellektual jihatlariga kamroq e'tibor berishadi. Shuningdek, oilaning birlashishi va tashkiliyligini pasaytiradilar. Kasbiy va oilaviy sohalar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishda oila muhitiga yuqori baho berish kasbiy charchash xavfini kamaytirishi, psixologik farovonlik omiliga aylanishi va salbiy kasbiy ta'sirlarni qoplashi aniqlandi⁹.

Oilada rollarning taqsimlanishi metodikasining turmush staji bo'yicha tafovutlari (N-642)

Shkalalar	O'rtacha rang				Kruskal-Uollis H mezon	p (ishonchlilik darajasi)
	1-5 yillik (N-324)	6-10 yillik (N-138)	11-15 yillik (N-120)	16-20 yillik (N-60)		
Bola tarbiyasi	318,42	335,89	325,04	292,66	2,476	0,480
Oiladagi emotsional muhit "Psixoterapiya"	307,43	339,71	337,47	318,57	4,202	0,240
Oilaning moddiy ta'minlanishi	323,49	338,36	317,21	275,12	5,115	0,164
Ko'ngil ochishlarning tashkil qilinishi	321,53	316,37	314,79	341,09	0,946	0,814
Uy sohibi va sohibasi	314,40	329,26	298,11	383,03	9,392	0,025*

⁹ Варламова С.Н., Носкова А.В., Седова Н.Н. Семья и дети в жизненных установках россиян // Социологические исследования. – 2006. – № 11.1. – С. 61-73.

Jinsiy sheriklik	309,44	330,89	327,14	348,47	3,180	0,365
Oiladagi ichki madaniyatni uyushtirish	307,90	336,42	323,03	352,28	4,394	0,222

Oilada rollarning taqsimlanishi metodikasining bikaryer oilalardagi turmush staji bo'yicha farqlari o'rganilganda, bola tarbiyasi ($H=2,476$; $p>0,05$), oiladagi emotsional muhit ($H=4,202$; $p>0,05$), oilaning moddiy ta'minlanishi ($H=5,115$; $p>0,05$), ko'ngilochar tadbirlarni tashkil etish ($H=0,946$; $p>0,05$), jinsiy sheriklik ($H=3,180$; $p>0,05$), oiladagi ichki madaniyatni uyushtirish ($H=4,394$; $p>0,05$) kabi shkalalarda ishonchli farqlar qayd etilmagani oydinlashdi. Turmush o'rtoqlarda turmush stajining ikkilamchi ta'siri ostida yuqorida keltirilgan funksiyalarni bajarishda teng taqsimlanish ko'proq namoyon bo'lar ekan. Uy sohibi va sohibasi roli shkalasida ishonchli farqlar kuzatilib, 6–10 yillik turmush tajribasiga ega bikaryer oilalarda ustunliklar aniqlandi ($H=9,392$; $p<0,05$). Demak, turmushning ikkilamchi moslashuvi davrida oila a'zolarida uyda kim xo'jayin ekanini oydinlashtirish, o'z rolini anglash va bajarish funksiyasi yaqqolroq namoyon bo'lar ekan.

3-jadval

Psixologik jins diagnostikasi metodikasining turmush tajribasi bo'yicha tafovutlari (N-642)

Shkalalar	O'rtacha rang				Kruskal-Uollis H mezon	p (ishonchlilik darajasi)
	1-5 yillik (N-324)	6-10 yillik (N-138)	11-15 yillik (N-120)	16-20 yillik (N-60)		
Maskulinlik	318,45	343,33	299,31	326,45	3,790	0,285
Femininlik	330,73	323,32	302,35	300,11	2,922	0,404
Androgeniya	355,22	303,01	327,51	272,68	7,548	0,050*

Psixologik jins diagnostikasining turmush tajribasi bo'yicha farqlari o'rganilganda, maskulinlik

($H=3,790$; $p>0,05$), femininlik ($H=2,922$; $p>0,05$) kabi shkalalarda ishonchli farqlar qayd etilmadi. Demak, turmush tajribasi oilalardagi maskulinlik va femininlik kabi sifatarning tarkib topishida muhim indikator vazifasini bajarmas ekan. Androgeniya ko'rsatkichi bo'yicha ishonchli farqlar qayd etilib, unga ko'ra 1-5 yillik turmush tajribasiga ega oilalarda ham erkak, ham ayollarga xos bo'lgan sifatlarni o'zaro hamkorlik, oilaviy hayot dinamikasida namoyon qilish yaqqolroq ifodalanar ekan ($H=7,548$; $p<0,05$).

4-jadval

Oilada er-xotin mutanosibligini energopsixologik diagnostikasi metodikasining turmush tajribasi bo'yicha tafovutlari (N-642)

Shkalalar	O'rtacha rang				Kruskal-Uollis H mezon	p (ishonchlilik darajasi)
	1-5 yillik (N-324)	6-10 yillik (N-138)	11-15 yillik (N-120)	16-20 yillik (N-60)		
Psixikaning kundalik turmushda algoritmlashganlik namoyon bo'lishi	309,38	326,10	329,24	355,68	3,880	0,275
Er-xotinlik va ota-onalik vazifalariga, turmush o'rtog'i va farzandlariga munosabatlar	305,75	335,06	357,82	298,00	8,947	0,030*
Bo'sh vaqtni o'tkazishni afzal ko'rish mazmuni va shakllari	354,74	325,23	303,60	271,59	7,408	0,050*
Xarakter sifatleri	310,00	339,55	325,48	328,85	2,798	0,424
Intellektual o'zaro ta'siri	311,63	327,83	328,58	340,87	1,972	0,578

Izoh: * $p<0,05$

Oilada er-xotin mutanosibligining energopsixologik diagnostikasi metodikasining turmush tajribasi bo'yicha farqlari o'rganilganda, psixikaning kundalik turmushda algoritmlashganlik namoyon bo'lishi ($H=3,880$; $p>0,05$), xarakter sifatleri ($H=2,798$; $p>0,05$), intellektual o'zaro ta'sir ($H=1,972$; $p>0,05$) kabi shkalalarda ishonchli farqlar qayd etilmadi. Bundan ko'rinadiki, turmush tajribasining ahamiyati xarakter sifatleri hamda


psixikaning turmushda algoritmizatsiya namoyon bo'lishida birlamchi ta'sirni amalga oshirmas ekan.

Er-xotinlik va ota-onalik vazifalariga, turmush o'rtoq'i va farzandlariga munosabatlar shkalasida ahamiyatli tafovutlar kuzatilib, 11-15 yillik turmush tajribasiga ega oilalarda ustunlik kuzatildi ($H=8,947$; $p<0,05$). Turmushning uchinchi dekadasi kelib, er va xotinlik munosabatlarida reintegratsiya hodisasi sodir bo'lishi hisobiga ham qayta rollarni taqsimlash, farzandlar, o'z roli tuzilmalariga munosabat boshqa shaklga ko'chishi mumkin ekan. Bo'sh vaqtni o'tkazishni afzal ko'rish mazmuni va shakllari shkalasida ham ahamiyatli natijalar kuzatilgan bo'lib ($H=7,408$; $p<0,05$), unga ko'ra, yosh oila davrida ko'proq bir-birini o'rganish sababidan birga bo'lishga harakat qilish tendensiyasi kuchayishi mumkin. Shuningdek, ish balansidan ortib oila uchun vaqt ajratishga intilishning yaqqol namoyon bo'lishi ham aynan yosh oila davriga to'g'ri kelishi ma'lum bo'ldi.

Oilada rollar taqsimlanishining tashkilot turiga ko'ra farqlari solishtirilganda, oilaning moddiy ta'minlanishi ($U=48318$; $p>0,05$) hamda jinsiy sheriklik ($U=49146,5$; $p>0,05$) kabi shkalalarda ishonch darajasidagi ahamiyatli farqlar qayd etilmagani ma'lum bo'ladi. Bu esa bizga xoh davlat, xoh xususiy jahdada karyera qilmasin, turmush o'rtoqlar nazdida oilani moddiy ta'minlash hamda oiladagi jinsiy rollarni er-xotin sifatida ado etish muhimligicha qolganidan dalolat beradi. Bola tarbiyasi rolining xususiy tashkilotda ishlovchi er-xotinlarda ustunlik qayd etishi ko'pincha ularning "bo'sh vaqtlari", shuningdek, ish mas'uliyatining dinamik ko'rinishi soatbay shaklda ekani bilan tushuntirilishi mumkin. Shu bois, nazdimizda, xususiy tashkilotlarda o'z faoliyatini amalga oshiruvchi oilalarda oilaga, uning rivojlanishi hamda oilaviy masalalarni hal qilishiga ko'proq e'tibor qaratiladi. Davlat tashkilotida xizmat faoliyatini o'tovchi oilalarda bola tarbiyasiga nisbatan rollarning notekis taqsimlangani ko'pincha ulardagi tig'iz ish grafigi va ish oldida burchning balandligi hisobiga faqat dam olish kunlari bolaning tarbiyasi bilan shug'ullanish, qolgan paytda uning o'zini band qilishga olib keluvchi mashg'ulotlar bilan chalg'itish evaziga sodir bo'lishi mumkin ($U=50304$; $p<0,01$).

Oiladagi emotsional muhit "psixoterapiya" funksiyasi ham xususiy tashkilotlarda ishlovchi oila vakillarida ustunlikni qayd etgan holda,

ularda bir-birini so'zsiz tushunish va emotsional simbiotik munosabatlar yaqqolroq namoyon bo'lishi kuzatildi. Ushbu jihat ko'pincha er va xotinning birgalikda ko'p vaqt o'tkazishi, shuningdek, oila haqidagi ustanovkalarining o'xshashligi bilan ham tushuntirilishi mumkin ($U=50056,5$; $p<0,01$). Ko'ngilochar tadbirlarni tashkil qilish ham xususiy tashkilotda faoliyat olib boruvchi er-xotinlar juftligida ustunlikni ko'rsatib, ish sharoiti va holatiga qaramasdan, oilasi uchun vaqt ajratish, refleksiya, relaksatsion tadbirlarni amalga oshirish motivatsiyasining faoliyat jarayonida dominantlik qilishini anglatar ekan ($U=47286$; $p<0,01$). Davlat tashkilotlarida faoliyat yurituvchi er-xotinlarda "vaqt qizg'anish", bo'sh vaqtdan unumli foydalanish orqali barcha qolib ketgan yumushlarini bajarish motivatsiyasining ustun bo'lishi hisobidan ba'zi holatlarda uydagi ko'ngilochar tadbirlarni keyinga surish ehtimoli baland bo'lishi mumkin.



Oilada rollarning taqsimlanishi metodikasining faoliyat turi bo'yicha tafovutlari o'rtacha rang hisobida

Uy sohibi va sohibasi shkalasi bo'yicha esa davlat tashkilotlarida ishlovchi turmush o'rtoqlarda ustunliklar kuzatilib, bu ularda "nemischa sarhisob" tamoyiliga muvofiq oiladagi barcha vazifalarni hamda funksiyalarni teng taqsimlaganlikda, shuningdek, er va xotinning konkret vazifalari kombinatsiyalashmagan holatda bajarilishida namoyon bo'ladi. Bunda er xotining yuklatilgan vazifalarni, xotin esa erga yuklatilgan vazifalarni bajarmaydi ($U=50260,5$; $p<0,01$). Oiladagi ichki madaniyatni uyushtirish shkalasida ham davlat tashkilotlarida ishlovchi er va xotinlar juftligida ustunlik aniqlanib, ularda oiladagi barcha funksiyalarni teng taqsimlash, oilaning uy-ro'zg'or, maishiy muammolarni birgalikda hal qilish orqali yagona yechim izlash ko'nikmasi takomillashayotganini bildiradi. Xususiy tashkilotlarda ishlovchilarda esa, gender rollarning notekis taqsimlanishi, xususan, ba'zi

holatlarda erkakning yumushini ayol, ayolning yumushini esa erkak bajarishi oiladagi ichki madaniyatni uyushtirishda rollarning xilma-xil tarzda o'zgarishidan dalolat berishi mumkin ($U=46293$; $p<0,05$).

Xulosa. Oilaviy munosabatlar doirasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, gender muammolari o'zining murakkabligi bilan ajralib turadi. Ular iqtisodiy, psixologik, sotsiologik va boshqaruv kabi turli fan sohalarining kesishgan nuqtasida joylashgan bo'lib, chuqur va ko'pyo'nalishli tahlilni talab etadi. Ayniqsa, jamiyatda gender tengligi siyosiy darajada e'lon qilingan, biroq real ijtimoiy amaliyotda gender asimmetriyasi (ya'ni ayollar va erkaklar o'rtasidagi tengsizlik) davom etayotgan sharoitda bu masalani o'rganish alohida dolzarblilik kasb etadi. Bunday sharoitda mavjud bo'lgan gender me'yorlari, ijtimoiy stereotiplar va xulq-atvor kodlari ko'pincha bir-biriga zid keladi, bu esa jamiyat a'zolari, xususan, oila institutida ishtirok etayotgan shaxslarning psixologik holati va rol identifikatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy gender psixologiyasi bu kabi rollarning moslashuvchan, o'zaro almashtiriluvchi, va kontekstga mos holda amalga oshirilishini targ'ib etadi. Aynan shuning uchun androgenlik

eng muvozanatli va rollarga nisbatan sezgir shaxsiy sifat sifatida ijtimoiy-psixologik jihatdan yuqori baholanadi, biroq bu tadqiqotda u ham ayrim jihatlarga salbiy ta'sir ko'rsatgani kuzatilgan. Bu esa androgenlikning ham kontekstual ishlanishini puxta rejalash zarurligini ko'rsatadi¹⁰.

Turmush tajribasining ikkilamchi ta'siri ostida turmush o'rtoqlarda oilaviy funksiyalarni bajarishda teng taqsimlanish ko'proq namoyon bo'ladi. Uy sohibi va sohibasi roli 6-10 yillik turmush stajiga ega bikaryer oilalarda ustunliklar qilishi aniqlandi. Turmushning ikkilamchi moslashuvi davrida oila a'zolarida uyda kim xo'jayin ekanini oydinlashtirish, o'z rolini anglash va bajarish funksiyasi yaqqolroq namoyon bo'lishi ma'lum bo'ldi. Turmush staji oilalardagi maskulinlik va femininlik kabi sifatning tarkib topishida muhim indikator vazifasini bajarmasligi tufayli androgeniya 1-5 yillik turmush tajribasiga ega oilalarda ham erkak, ham ayollarga xos bo'lgan sifatlarini o'zaro hamkorlik, oilaviy hayot dinamikasida namoyon qilish yaqqolroq ifodalanishi aniqlandi.

¹⁰ Дулина Н.В., Ануфриева Е.В. Гендерный уклад в современной российской семье: повседневные практики женщин и мужчин (по итогам прикладного социологического исследования) // *Primo Aspectu*. – 2016. – № 2 (26). – С. 54-67.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Брандт Г.А. Природа женщины как проблема / Г.А.Брандт // *Общественные науки и современность*, 1998. – № 2.
2. Варламова С.Н., Носкова А.В., Седова Н.Н. Семья и дети в жизненных установках россиян. // *Социологические исследования*, 2006. – № 11.1.
3. Воронина О.А. Феминизм и гендерное равенство / О.А.Воронина. – Москва: УРСС, 2004. – 320 с.
4. Гендерные стереотипы в меняющемся обществе. Опыт комплексного социального исследования / под ред. Н.М.Римашевской. – Москва, 2009. – 272 с.
5. Гурко Т.А. Феномен современного отцовства // *Мужчина и женщина: меняющиеся роли и образы. Материалы международной научной конференции*. Т. 1. – Москва, 1999.
6. Дружинин В.Н. Психология семьи. – Оренбург: КСП, 2013.
7. Дулина Н.В., Ануфриева Е.В. Гендерный уклад в современной российской семье: повседневные практики женщин и мужчин (по итогам прикладного социологического исследования) // *Primo Aspectu*. – 2016. – № 2 (26).
8. Жедунова Л., Посысов Н., Можаровская И., Юрасова Е. Основы психологии семьи и семейного консультирования: учебное пособие. – Москва: ВЛАДОС-ПРЕСС, 2022.
9. Заикина Г.А. Основные направления и методы регулирования брачно-семейных отношений: опыт социологического анализа: Автореф. дис. ...канд. философ, наук. – Москва: ИСИ АН СССР, 1988. – 26 с.
10. Захарова О.Д., Рыбаковский Л.Л. Геополитические аспекты депопуляции в России. // *Социологические исследования*, 1997. – № 6.
11. Эйдемиллер Э.Г. Семейная психотерапия. – Москва, 1987. – 213 с.